O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI

# “YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI”

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘qituvchi: Eshnazarova Farida Jo‘rakulovna**

**MAVZU: Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari, psixodiognostika va psixokorreksiyasi**

**DARS REJASI:**

- Yosh davrlar psixologiyasining tadqiqot metodlari
- Maktab yoshdagi bolalarning sportga bo‘lgan motivlarini aniqlashda psixodiognostika va psixokorreksiya ishlarining mazmuni

Har bir fanning o‘z predmetini o‘rganish metodlari bo‘lgani kabi, yosh davrlar psixologiyasi ham psixologiya fanining alohida bo‘limi sifatida o‘z tadqiqot metodlariga ega.

Yosh davrlar psixologiyasi fani metodlari ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarni hal qilish uchun ham zarur.



# Psixologiya metodlari



Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisadir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi degan, savol tug’iladi. Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo‘lish uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana olishni bilish kerak. Har bir pedagog psixikani tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim.



**Metod nima?**

Metod - (yunoncha metodos- tabiat hodisalarini tekshirish usuli).

Aniq izlanish predmetiga ega bo‘lgan har qanday fan o‘sha predmetining mohiyatini yoritish va ma’lumotlar to‘plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning **metodlari** deb yuritiladi.

# METODLARNING TURLARI

| № | Asosiy metodlar | Metodlar klasifikatsiyasi |
|---|---|---|
| 1. | Kuzatish | Tashqi, ichki, erkin, standartlashtirilgan, guruh ichida, guruhdan tashqarida |
| 2. | So‘rov | Og’zaki, yozma, erkin, standartlashtirilgan, anketa, intervyu |
| 3. | Testlar | Test-so’rov, test-topshiriq, proyektiv test, sotsiometrik test |
| 4. | Tajriba | Tabiiy va laboratoriya |
| 5. | Modellashtirish | Mantiqiy, texnik, matematik, kibernetik |

# KUZATISH METODI

- Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi.
- Kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:
- 1) kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- 2) kuzatish obyekti tanlanadi;
- 3) sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi;
- 4) tadqiqot vaqti rejalashtiriladi;
- 5) kuzatish qancha davom etishi qatiylashtiriladi;
- 6) qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi;
- 7) kuzatish natijalar qayd qilib boriladi.





Suhbat metodi bilan inson psixikasini o‘rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob’ekti va subekti tanlanadi, suhbat mavzusi, o‘kaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o‘tkazish rejalashtiriladi, savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilingan jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir.

Test - inglizcha so‘z bo‘lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o‘sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi, istedodligini aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo‘llaniladi.



**Tajriba (eksperiment) metodi**

Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o‘spirin, balog’atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi.

**Psixologik modellashtirish** inson xulq-atvorining odatiy modellarini yaratishga yordam beradi.

Yosh davrlar psixologiyasiga doir masalalar yuzasidan eksperemental tadqiqotlar maktablarda o‘tkaziladi

**Sotsiometrik metodi**

**Proyektiv metodi**



**Anketa metodi**

**Suhbat metodi**

**Biografiya (tarjimai hol) metodi**

**Faoliyat samaralarini tekshirish metodi**

"Usul" tushunchasiga ta'rif berish bilan birga "metod" va "metodika" atamalari ham qo'llaniladi.

Psixologiya usullari - tadqiqotchilar ma'lumot olishlari va psixologiyada ilmiy nazariyalarni yaratish va amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni kengaytirishlari mumkin bo'lgan texnika va usullar majmuasidir.

Usul tadqiqot uchun zarur bo'lgan qoidalar to'plami bo'lgan metodologiyada amalga oshiriladi, muayyan sharoitlarda qo'llaniladigan va tadqiqotchining ta'sir qilish ketma-ketligi bilan tartibga solinadigan amaliy vositalar va ob'ektlar to'plamini tavsiflaydi.

Metodologiya - bu nazariy ilmiy bilimlarga erishish yo'llarini, amaliy faoliyatni tashkil etish usullarini belgilovchi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish tamoyillari va usullari tizimi.

**PSIXODIAGNOSTIKA**

**«Psixodiagnostika»** atamasi psixologik tashxis qo‘yish degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holati, to‘liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir.

**PSIXOKORREKSIYA**

**«Psixokorreksiya»** so‘zi - inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, tuzatish degan ma’nosini anglatib shaxsning kamchiliklarini tuzatish usullarini qo‘llash.



Bolaning yoshligidan iqtidori, iste‘dodini ko‘ra bilmaslik, ularga ishonch ko‘zi bilan qaramaslik, ularning ilmiy-ijodiy mehnatlari mahsuliga befarqlik, imkoniyatlarini, intellektini baholay olmaslik kabi holatlar ota - onalar va o‘qituvchilarning asosiy kamchiligidir.

Shu sababli maktablarda tashxis ishlari talab darajasida tashkil etilishi lozim.

# UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BIRINCHI SINFDAN BOSHLAB JISMONIY TARBIYA DARS JARAYONIDA BOLALARNI SPORTGA SARALASH YO'LLANMA BERISH UCHUN QUYIDAGI TARTIBDAGI TEXNOLOGIK YONDASHUV TAVSIYA ETILADI

1. Umumta'lim maktab, turar joy, mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan turli sport turlariga xos testlar majmuasida 1-4 sinf o'quvchilari qobiliyatlarini individual ravishda aniqlash.
2. Yaqin atrofdagi sport to'garaklari haqida batafsil ma'lumotlarni ota-onalarga yetkazish.

3. Jismoniy tarbiya ta'lim mazmunida o'quvchilarni olimpiada sport turlari bilan tanishtirish.
4. 7-10 yosh xususiyatlarida jismoniy qobilyatlarning tabiiy dinamikasida namoyon bo'ladigan senzetiv davrlarga xos jismoniy sifatlarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish.

# UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BIRINCHI SINFDAN BOSHLAB JISMONIY TARBIYA DARS JARAYONIDA BOLALARNI SPORTGA SARALASH YO'LLANMA BERISH UCHUN QUYIDAGI TARTIBDAGI TEXNOLOGIK YONDASHUV TAVSIYA ETILADI

5. Sport turlariga xos harakatlarning texnikaviy elementlarini harakatli o'yinlar vositasida o'zlashtirish.
6. Tabiatdan koordinatsion qobiliyatlar rivojlangan iqtidorlarni, jismoniy harakat faolligiga nisbatan individual moyillikni aniqlash.

7. O'quvchilar o'rtasida turli sport musobaqalarini tashkil qilish hamda uning natijalarini maktab miqiyosida tahlil qilish.

8. Har bir o'quvchining psixik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni sport o'yinlariga jalb qilishni yo'lga qo'yish.

- E’tiboringiz uchun rahmat!



- rasmiy veb-sayt
- http://www.samsportedu.uz

- maxsus rasmiy telegram kanal
- https://t.me/sfmalaka